

## ONA TILI DARSLARIDA TA'LIMIY O'YINLARDAN FOYDALANISH

*Mo'minova Madhiya**Qashqadaryo viloyati Koson tumani 14-maktab**Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi**To'lqinova Nargiza**Koson tumani 14-maktab 8-sinf o'quvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqola, ona tili darsida o'quvchilarda fikrni og'zaki va yozma bog'lanishli bayon qilish, malaka hamda ko'nikmalarini hosil qilish, ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishda qo'llaniladigan ta'limi o'yinlar va ularning mohiyati to'g'risida misollar orqali fikr yuritadi.

Maktab ta'lmini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risidagi Farmonning uchinchi yo`nalishida o`quv standartlari, o`quv dastur va darsliklarini takomillashtirish bo`yicha DTS, dastur, darsliklarning takomillashtirilgan variantlari tayyorlandi hamda shular asosida ish olib borilmoqda. Chunonchi, ona tili ta'luming takomillashtirilgan standarti tayyorlandi. Unga ko`ra:

a) grammatikaga oid o`zlashtiriladigan bilimlar; - *fonetika, morfologiya, sintaksis, leksikologiya, so`z tarkibi, so`z yasalishi, yozuv va imlo, nutq uslublari, uslubiyatga oid tushunchalar*.

b) nutqni o'stirish: - *birinchi yo`nalish* - o`quvchilarning so`z boyligini rivojlantirish; - *ikkinci yo`nalish* - o`zbek adabiy tili me'yorlarini o`rgatish, adabiy talaffuz me'yorlari, shuningdek, lug'aviy sinonimika, qo'shimchalar sinonimikasi, umuman, grammatik sinonimika bilan tanishtirish; - *uchinchi yo`nalish* - o`quvchilarda fikrni og'zaki va yozma bog'lanishli bayon qilish malaka hamda ko'nikmalarini hosil qilish shart qilib belgilangan. Ana shundan kelib chiqib, ona tili ta'luming asosiy maqsadi: ona tili mashg'ulotlari o`quvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilmog'i darkor. Ayni fursatda, mazkur murakkab, mas'uliyatli vazifani bajarishda ona tili darsliklarining ahamiyati muhim.

O`quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladigan o`quv topshiriqlari o`rta maktabning o`zbek tili darsliklarida berilgan. Mazkur topshiriqlar turli usullar bilan o'qituvchi hamkorligida o`quvchilar tomonidan mustaqil bajarishi lozim. Ijobiy natija beradigan topshiriqlarning asosiy turlaridan biri *grammatik o`yin-topshiriqlardir*. Bu turdagи topshiriqlar o`quvchilardan zukkolikni, bilimdonlikni,

izlanishni, topqirlikni va tezkorlikni talab qiladi. Ona tili darslarining qiziqarli o`tishida o`yin-topshiriqlarning ahamiyati juda katta. Biroq “O`zbek tili o`qitish metodikasi”da grammatik o`yin-topshiriqlar va ulardan foydalanish metodikasi yetarli darajada ishlanmagan. O`yin-topshiriqlarga hos bo`lgan jihat shundan iboratki, u ko`pincha musobaqa tarzida tashkil etiladi. Natija yakunida, o`quvchi va guruhlarga rag`bat yoki ballar berilishi, shubhasiz, o`quvchilarda topshiriqniga bajarishga ishtiyoqni oshirishga sabab bo`ladi. Natijada, o`quvchilarning grammatik savodxonligi, ijodiy fikrlash qobiliyati, topqirligi, nutqi va shu fanga muhabbati ancha oshadi. Shu bilan birga, qo`shimcha adabiyotlardan foydalanish, boshqa fanlar bilan ham jiddiy shug`ullanish ehtiyojini tug`diradi. Shunini inobatga olgan holda, o`qituvchi darslarining samarali bo`lishi uchun turli o`yin-topshiriqlardan va boshqotirmalardan unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Bugungi davr talabi ham, fan o`qituvchisidan mahorat, ijodkorlik, eng asosiysi, tinimsiz mehnat talab qiladi. Shularni hisobga olgan, holda ona tili darslarini o`tishda ishlatish mumkin bo`lgan ayrim grammatik o`yinlar, boshqotirmalar va ulardan foydalanish metodlariniko`rib chiqamiz. Bunday grammatik o`yinlarni yanada ko`plab o`ylab topish va ulardan dars jarayonida foydalanish mumkin. Bu esa, yuqorida ta`kidlanganidek, o`qituvchining ijodkorligiga, izlanuvchanligiga, mahorati va tinimsiz qiladigan mehnatiga bog`liq. Ma'lumki, o`yin-topshiriqlar o`quvchilar malaka va ko`nikmalariga ko`ra, murakkablik darajasiga ko`ra guruhlanib, soddadan murakkablik dinamikasiga qarab boradi.

Quyida ona tili darslari jarayonida qo'llash mumkin bo`lgan ta'limiylar o`yinlarning bir nechtasini keltirib o'tamiz.

### Limerik

Sinf doskasiga limerik osib qo`yiladi. Har bir ijodiy guruhdan bittadan vakil limerikning 2-3 satrini tanlab oladi. Vazifa: tanlab olingan satrlar mazmunigamoslab, she'riy matn tuzishni davom ettirish.

Vazifani bajarish uchun 10 minut vaqt beriladi. So`ngra har bir guruhdan 1 kishi taqdimotga chiqadi. O`yin so`ngida o`qituvchi bajarilgan ishlarni sharhlaydi.

5-sinf ona tili darslarida “Til va jamiyat” mavzusini o`rganish uchun quyidagi topshiriqlarni berish mumkin:

1. Darslikning 6-sahifasidagi 2-mashqda berilgan til haqidagi maqol va hikmatli so`zlarni o`qing. O`zingiz va o`rtoqlaringiz bilgan ana shunday maqol va hikmatli so`zlarni eslab, qog`ozga yozing.
2. Nutq odobi haqidagi maqollar, matallar va hadislarni eslangu, qog`ozga yozing.
3. Har bir ijodiy guruh vakillari taqdimotida faol qatnashing.
4. Taqdimot davomida yangi topilgan eng ma`qul maqol, matal, hikmatli so`z vahadislarni doskaga yozib bering va sharhlang.
5. Taqdimot davomida tilning ijtimoiy va ma`rifiy ahamiyati haqidagi o`z fikrlaringiz bilan o`rtoqlashing.

O`yin o`qituvchining sharhi bilan yakunlanadi.

### Til xazinasiga sayohat

Darsda o`rganilayotgan mavzu xazinada yashiringan boylik deb e`lon qilinadi. Kichik ijodiy guruhlar a`zolari yangi mavzuga doir o`zlari va o`rtoqlarida mavjud bo`lgan tasavvurlar bilan o`rtoqlashadilar. Har bir qatnashchi o`z oldidagi qog`ozga o`rtoqlaridan bilib olgan yangi ma'lumotlarni yozib boradi. Eng muhim ma'lumotlar doskaga yozib boriladi va natijada xazina sirlari oydinlasha boradi.

### O`zligingni angla

Bu o`yin o`quvchilarini o`zligini anglashga, o`zi haqida o`zgalarga so`zlab berishga, sinf o`quvchilarini noverbal muloqotga o`rgatadi. Chorak oxirida takrorlash darslarida o`tkazish mumkin. O`yin uchun 20 minut vaqt ajratiladi. O`yinni o`tkazish uchun tavsiyalar:

1. O`yin ishtirokchilari bir varaqdan qog`oz, markerlar va to`g`nog`ich oladilar. 10 minut davomida quyidagilarni bajaradilar:

- a) qatnashchilar o`zlarining avtoportretlarini o`rtoqlik hazili tarzida chizadilar;
- b) o`zlarining eng xarakterli sifatlarini yozadilar, masalan: “Mentirishqoqman”, “Men sabrsizman” kabi;
- v) zodiak kalendari bo`yicha o`zlarining qaysi burjga mansubliklarinichizadilar;

2. O`yin ishtirokchilari o`zları tayyorlagan qog`ozni o`z ko`kraklariga to`g`nab oladilar.

3. Qolgan vaqtda ishtirokchilar gapirmasdan (noverbal muloqot) bir-birlarini o`rganadilar.

4. Tanishuv tugagach, o`z o`rinlariga qaytib bir-birlariga savol beradilar.

5. O`qituvchi o`quvchilar bilan o`zlikni anglash jarayonini muhokama qiladi. O`yinning ikkinchi variantida “Men qanday bo`lmoqchiman?” savolini qo`yish mumkin. O`yin qatnashchilari o`zları haqidagi ma'lumotlarni to`ldirib beradilar. “Noverbal aloqa” ichki nutqni o`stiradi, o`quvchilarining fikrlash doirasini kengaytiradi, o`zligini tanqidiy va ob`ektiv mulohaza qilishga, o`rtoqlarining xarakter-xususiyatlarini o`rganishga da`vat etadi.

### O`z xotiralari bilan o`rtoqlashish

O`yinni o`tkazishdan maqsad:

1. Sinfda o`quvchilarning o`zaro hamkorligini, o`zaro ishonch muhitini ta'minlaydi.

2. O`quvchilarning fikrlash qobiliyatini o`stiradi.

3. Sinf o`quvchilariga bir-birlarini yaxshi anglash uchun sharoit tug`diradi. Kichikguruhlardagi o`quvchilar soni 10-12 tadan oshmasligi kerak. O`yinga 10 minut

vaqt ajratiladi.

5-sinf o`zbek tili darslarida bu o`yin o`tkazilganda o`quvchilardan 5 yil oldin maktabga ilk qadam qo`yan kunlarini xotirlash so`raladi. Xotirlash jarayoni dastlab noverbal bajariladi (ichki nutq). So`ngra xotiralar og`zaki bayon etiladi. Mazkur o`yin o`quvchilar xotirasini mustahkamlaydi, mustaqil fikrlash va bog`lanishli og`zaki nutq ko`nikmalarini o`siradi. Xotirlash jarayoniga turki bo`ladigan manbalardan (rasm, “Alifbe” kitobi, qo`ng`iroq) foydalanish mumkin.

### Tinglang va xulosa chiqaring

Bu o`yin bog`lovchi zveno vazifasini bajaradigan o`yinlardan bo`lib, bir mavzudan ikkinchi mavzuga “yengil” o`tish imkoniyatini tug`diradi. Yangi mavzuga muqaddima, turli tushunchalarni o`zaro bog`lovchi “ko`prik” vazifasini o`taydi.

O`yinni o`tkazishdan maqsadlar:

1. Sinf o`quvchilarining diqqatini koordinatsiya qilish.
2. O`quvchilarni guruh bo`lib ishlashga jalb etish.
3. Yangi mavzu taqdimotida o`zaro qanday muloqotga kirishish va bir-birini tinglash madaniyatini shakllantirish.

O`yin uchun 15 minut vaqt ajratiladi. O`yinni o`tkazish uchun tavsiyalar:

1. O`zbek tili o`qituvchisi sinf o`quvchilariga quyidagi topshiriqni beradi: Boshqa ijodiy guruhlardan o`zingizga ikki nafar sherik tanlang. 3 kishi bo`lib, o`zlariningizga ma`qul rang tanlang. Masalan, O`zbekiston Respublikasining bayrog` idagi ranglardan: zangor, qizil, oq, moviy.

2. Kichik ijodiy guruhlarning har biri boshqalarga nimalar to`g`risida so`zlab berish mumkinligini maslahatlashadilar, ona tili darslarida yaqin orada o`rgatilgan mavzulardan birini tanlaydilar (“Til va jamiyat”, “So`z tarkibi”, “Kesim”, “Sodda yig`iq gap”, “Gap qoliplari”, “So`z birikmalari”, “Uyushiq bo`laklar”, “Undalma”, “Qo`shma gap”, “Ko`chirma gap” kabi).

3. O`ylash uchun 2 minut vaqt beriladi.

4. Taqdimotda har bir ijodiy guruh o`zi tanlagan mavzu bo`yicha boshqalarga ma`lumot beradi. 3 ta qatnashchi bir-birini to`ldiradi. Taqdimot uchun 2 minutdan vaqt ajratiladi. O`qituvchi vaqtini kuzatib turadi.

5. Boshqa guruh a`zolari eshitganlari haqida xulosa chiqarib beradilar. Bu o`yindagi so`nggi halqa bo`lib, xulosalarga alohida ahamiyat beriladi. Yuqoridagi o`yin vositasida o`tilgan mavzularni takrorlash yengillashadi.

O`quvchilarda oz vaqt ichida mavjud bilimlar yuzasidan mustaqil xulosa chiqarish ko`nikmasi shakllanadi. Bu esa tanqidiy fikrlashni o`sirishdagi muhim omildir. 5- sinf ona tili darslari misolida olib ko`rganimizda, darslikdagi I bo`lim (“Muqaddima”) o`rganilgach, II bo`limga o`tishdan oldin yuqoridagi o`yinni o`tkazish mumkin.

**Berilgan mavzu (jumla) asosida muzokaraga kirishish**

O`yinni o`tkazishdan maqsad:

Sinfda musobaqa ruhini o`stirish; o`zaro fikr almashishga o`rgatish.

O`quvchilarning bog`lanishli og`zaki va yozma nutq ko`nikmalarini o`stirish.

Taqdimotlarda o`quvchilarning nutq madaniyati asoslarini egallashlarigaerishish.

O`yin uchun 20 minut vaqt ajratiladi. Mazkur o`yinni yakunlovchi mashg`ulotlarda, yozma ishga tayyorgarliklar oldidan o`tkazish mumkin.

O`yinni o`tkazish uchun tavsiyalar:

1. Sinf o`quvchilari davra qurib o`tiradilar. O`qituvchi lenta shaklida qirqilganqog`ozlarga yozilgan mavzular (jumlalar)ni tarqatadi.
  2. O`quvchilar tanlagan mavzulari (jumlalari) asosida bog`li matn tuzadilar (yozma).
- 
1. Taqdimotga (og`zaki) 2 minut vaqt beriladi.
  2. O`qituvchi o`yin natijalarini sharhlab yakunlaydi.

O`quvchilarga tavsiya etilishi mumkin bo`lgan mavzular (jumlalar) namunasi:

1. Do`sht bo`lish bu...
2. Raqobat – bu...
3. Mening mакtab hayotiga doir ilk xotiralarim.
4. Mening birinchi o`qituvchim.
5. Men sevgan bolalar shoiri (yozuvchisi).
6. Mening sevimli kitobim.
7. She`riyat men uchun...
8. Kitob men uchun...
9. Kompyuter – bu...
10. Sport mening hayotimda.
11. O`zbek xalq milliy bayramlari.
12. O`zbek xalq bolalar o`yinlari.
13. O`zbek xalq bolalar og`zaki ijodi.
14. Kattalarga munosabatim.
15. Mening kelajakdagi orzularim.
16. Men sevgan kasb.
17. Mening sevimli mashg`ulotim. Bo`sh vaqtimni qanday o`tkazaman?

**Tashqi qiyofani o`zgartirish va o`rtog`idagi o`zgarishlarni topish**

Mazkur o`yin rag`batlantiruvchi o`yinlardan bo`lib, uni o`tkazishdan maqsad:

- qabul qilish va kuzatuvchanlik ko`nikmalarini mustahkamlash;

- o`zgarish jarayonlarini tushunish;
- o`z-o`zini o`rganishni rag`batlantirish.

O`yinni o`tkazish uchun 15 minut vaqt ajratiladi. O`qituvchining tavsiyasi bilan o`quvchilar 2 nafardan ixtiyoriy juftliklarga bo`linadilar. Juftliklarda kiyim-bosh, oyoq kiyim, bant, galstuk kabi aksessuarlar bir xil rangda bo`lishi kerak. Juftliklar bir-birlariga orqa o`girib o`tiradilar. 2 minut ichida o`z tashqi qiyofalarini (3 ta belidan oshirmagan tarzda) o`zgartiradilar. Vaqt tugagach, bir-birlariga qarab, o`rtoqlarining tashqi qiyofasidagi o`zgarishlarni topadilar. Buning uchun 1 minutdan vaqt beriladi.

Mazkur o`yin o`quvchilarning ko`rish xotirasini mustahkamlaydi, kuzatuvchan bo`lishga o`rgatadi. O`z navbatida bu kabi sifatlar ta'lim jarayonida qo`l keladi.

O`quvchilar savodxonligini oshirishda imlo lug`atlari bilan ishlashda, o`qilgan kitob, muzeyga sayr taassurotlari asosida bayon yozishda yordam beradi.

### Mening vaqt pirogim

Bu o`yin ham rag`batlantiruvchi o`yinlardandir. O`yinni o`tkazishdan maqsad:


- o`z faoliyatini nazorat qilish va shaxsiy ma'lumotlar bilan fikr almashishnirag`batlantirish;
- o`z kun tartibini to`g`ri rejalashtirishda sinf o`quvchilarining qo`llab-quvvatlashlaridan foydalanish.

Bu o`yinni o`tkazish uchun 12-15 minut vaqt ajratiladi. Kichik guruhlar 4-6 o`quvchidan oshmasligi kerak.

O`qituvchi o`yin shartlarini tushuntiradi:

Men sizlarga hozir bir varaqdan qog`oz va bir nechtadan rangli qalamlartarqataman. O`z kun tartibingizni pirog shaklida chizing.

Masalan:



Ikkinchi pirogni ham chizing. Unda kun tartibingiz qanday bo`lishini xohlashingiz aks etsin.

Bu o`yin o`quvchilarni vaqtdan unumli foydalanishga o`rgatadi. Uydagi faoliyat

mazmuniga e'tibor berishni o`rgatadi. Uzluksiz ta'lim samaradorliginita'minlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'limiy o'yinlar o'quvchilarni dars jarayonlarida faol ishtirok etishi hamda mavzular mohiyatini to'liqroq anglab yetishi uchun katta ahamiyatga ega.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Isamitdinov S. Ta'lim jarayonida innovatsion usullardan foydalanish. Toshkent, 2005 – 16 bet.
2. Po`latov I.P., Odilov S. O`zbek tili ta'limidagi zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodlar (ilmiy-uslubiy qo`llanma). Qo`qon, 2004 – 39 bet.
3. Po`latovI.P., Umarov J. Ona tili darslarida innovatsion metodlardanfoydalanish (ilmiy-uslubiy qo`llanma). Qo`qon, 2005 – 22 bet.
4. Po`latov I. Ona tili ta'limida innovatsion o'yinlar.//Pedagogik ta'lim (ilmynazariy va metodik jurnal) Toshkent, Nizomiy nomidagi ToshDPU, 2005-yil, №2. – 71-75-betlar.
5. Xolnazarov N. Innovatsion usullar.//Farg`ona ziyosi (ilmiy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy, adabiy-badiiy nashr) Farg`ona, 2005-yil, №4 – 8-9-betlar.
6. Po`latov I.P., Odilov S.A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili darslarida innovatsion o'yinlar. (ilmiy-uslubiy qo`llanma). Toshkent, Respublika ta'lim markazi, 2005-yil. – 24 bet.
7. Ahmedova H. O`zbek tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. Toshkent, "Tafakkur" nashriyoti, 2012-yil. – 96 bet.